C) a – kelib chiqish markazi Markaziy Amerika; b – bitta yovvoyi ajdod turdan kelib chiqqan, oddiy shingilli, mevasini pallalari orasida to'sig'i bor; c – tarkibi "C" vitaminiga boy, ikki yillik o'simlik

D) a – uning kelib chiqish markazi madaniy o'simliklarni 14%ini vatani hisoblanadi; b – tukli arilar yordamida changlanadi; c – masxar bilan bir oilaga va bir sinfga kiradi

24. Bronxlarga tarkibida 16,3% kislороди bo'lган havo o'tishdan oldin qayerdagи retseptorlar qo'zg'alishini aniqlang.

- 1) bo'yin muskulining paylaridagi; 2) bo'yin muskulning tolalaridagi;
- 3) tashqi qovurg'alararo muskulning paylaridagi;
- 4) tashqi qovurg'alararo muskulning tolalaridagi;
- 5) ichki qovurg'alararo muskulning paylaridagi;
- 6) ichki qovurg'alararo muskulning tolalaridagi;
- 7) diafragma muskulining paylaridagi; 8) diafragma muskulning tolalaridagi.

- A) 2, 4, 5, 8 B) 2, 4, 6, 8
C) 1, 3, 6, 7 D) 1, 4, 5, 7

25. Glukoza (a), dezoksiriboza (b), riboza (c) ga xos xususiyatlarni tanlang.

1) monosaxarid; 2) tamaki mozaikasida uchraydi; 3) uzum shakari; 4) ATF uchraydi; 5) qondagi miqdori 0,1–0,12%; 6) tarkibidagi vodorod va kislorodlar nisbati suvdagidek emas; 7) Ti plazmid tarkibiga kiradi; 8) saxaroza tarkibiga kiradi; 9) fag tarkibida uchraydi; 10) past molekulali karbonsuv; 11) timin bilan birga uchramaydi; 12) ribosomaning kichik subbirligi tarkibida uchraydi; 13) uratsil nukleotidi tarkibida uchramaydi; 14) mushaklarda anaerob nafas olish tufayli 2 molekula sut kislota hosil qilmaydi.

- A) a-1, 8, 11, 14; b-9, 1, 7, 10, 13; c-2, 1, 4, 10, 12, 11
 B) a-1, 10, 11, 13; b-10, 13, 14, 6; c-11, 1, 10, 4, 14
 C) a-1, 3, 5, 8, 10; b-1, 10, 9, 4, 13, 14; c-4, 1, 0, 1, 2, 11
 D) a-1, 10, 5, 6, 3; b-1, 7, 9, 10, 13; c-2, 14, 10, 12, 11

26. Qaldirg'och qishlaydigan hududlarda yashovchi hayvonlarni belgilang.

- 1) gavial; 2) aligator; 3) Afrika tuyaqushi; 4) suv ayg'iri;
 5) karkidon; 6) o'rgimchak maymun; 7) baobab; 8) tilyapiya.
 A) 2, 3, 7
 B) 3, 6, 8
 C) 2, 4, 6
 D) 1, 3, 8

27. Quyidagilardan xromosomalar soni 24 taga tenglarini aniqlang.

a) qalampir arxeosporasidagi metofaza I da; b) diploid navli tamaki mikrosporasini anzfasasida;

c) olxo'ri arxeosporasida meyozdan so'ng;
 d) tetraploid navli tamaki arxeosporasini profaza II da;
 e) no'xatning mikrosporasini anafazasida autosomalari.

- A) a, b B) b, c, d
 C) a, d D) c, d, e


28. Gigrofit (a), gidrofit (b), mezofit (c), kserofit (d) o'simliklarni aniqlang.

- A) a – qo'g'a; b – elodeya;
 c – shuvoq; d – yantoq
 B) a – qamish; b – suv qaroqchisi; c – karam;
 d – bug'doy
 C) a – rovak; b – suv qiriqqulog'i; c – makkajo'xori;
 d – izen
 D) a – funariya; b – suv nilufari; c – olma; d – sebarga

29. Qaysi o'simliklarni murtak xaltasidagi hujayralar soni gulkosachabarglari soniga teng?

- 1) Zarmiton; 2) Zarafshon;
 3) Omad; 4) Daroyi;
 5) Umrboqi; 6) Farhod;
 7) Buvaki; 8) Samarqand-3.
 A) 1, 5 B) 2, 6
 C) 3, 8 D) 4, 7

30. Bakteriyalar faoliyati natijasida hosil bo'ladigan quyidagi reaksiyalarni nomlari bilan juftlang.



- A) a – nitrofikatsiya;
 b – ammonifikatsiya;
 c – denitrifikatsiya
 B) a – denaturatsiya;
 b – nitrifikatsiya;
 c – azotfikatsiya

- C) a – ammonifikatsiya;
 b – nitrifikatsiya;
 c – denitrifikatsiya
 D) a – ammonifikatsiya;
 b – denitrifikatsiya;
 c – nitrofikatsiya

8-2018

1. Sog‘lom ayol organizmmidagi bachadon oldingi (a) va orqa (b) tomondan nima bilan chegaralangan?

- A) a – siydk pufagi;
 b – to‘g‘ri ichak
 B) a – chambar ichak;
 b – buyrak
 C) a – taloq; b – chambar ichak
 D) a – chambar ichak;
 b – buyrak

2. Tohirning tanasidagi qon suyuqligini massasi 4,2 kg ga teng bo‘lib, uning bir sutka davomda iste’mol qilgan ovqatidan ajralganenergiya 2800 kkal ga to‘g‘ri keladi. Shu energiyaning 30% asosiy moddalaralmashinuvini ta’minalash uchun necha soatga yetadi?

- A) 10 soatga
 B) 13 soatga
 C) 14 soatga
 D) 15 soatga

3. Porfira va karakatitsa hujayralari uchun umumiy bo‘lgan tuzilmalarni aniqlang.

- 1) sitoplazmatik membrana;
 2) endoplazmatik to‘r;
 3) ribonukleotidlar;
 4) sitoplazma; 5) mitotik ip;
 6) dezoksiribonukleotidlar;
 7) plastida; 8) sellulozadan iborat qalin hujayra qobig‘i.

- A) 1, 3, 8
 B) 2, 3, 6
 C) 5, 6, 8
 D) 1, 4, 7

4. Insontanadagi qaysi hujayralarda xromosoma to‘plami juft bo‘lmaydi?
 1) urug‘don; 2) tuxumdon;
 3) prostata bezi; 4) eritrosit;
 5) trombosit; 6) epidermisning sirtqi qavati; 7) spermatozoid;
 8) tuxum hujayra.

- A) 1, 2, 6
 B) 4, 6, 8
 C) 7, 8
 D) 3, 7

5. Beda o‘simligini hujayralarida yorug‘lik energiyasi hisobiga va aerob sharoitda 930 molekula ATF sintezlandi. Shu vaqtda loviya o‘simligining hujayralarida aerob sharoitda sintezlangan ATF molekulalari soni, beda o‘simligi hujayralarida anaerob sharoitda sintezlangan ATF molekulalari sonida 1,2 marta ko‘p bo‘lsa, loviya o‘simligini hujayralarida anaerob sharoitda sintezlangan ATF molekulalari sonini aniqlang.

- A) 1080
 B) 32400
 C) 900
 D) 27000

6. Tukanva alligator organizmlar uchun umumiyl xususiyatlarni aniqlang.

1) siydk yo'lining kloaka bo'shlig'iga ochilishi;
2) gastrulyatsiyaning qat-qat joylashuvi; 3) tana haroratini tashqi muhit haroratiga bog'liqligi; 4) tuxum qo'yib ko'payish; 5) tanasining pat bilan qoplanishi; 6) birlamchi jinsiy hujayralarining mitoz usulida bo'linishi; 7) tuxum hujayrasida qo'shimcha qobiqlar hosil bo'ladi.

- A) 1, 4, 5
B) 2, 3, 6
C) 1, 5, 6
D) 1, 2, 7

7. Oqsil biosintezida DNK molekulasi asosida ikkita aminokislota orasidagi peptid bog'ni hosil qilish uchun 2 molekula ATF sariflanishi ma'lum. Shu oqsil biosintezida hosil bo'lganaminokislotalar orasidagi peptidbog'lar uchun 57600 kJ energiya sarflangan bo'lsa, quydagilarni aniqlang:
a) hosil bo'lgan aminokislotalar soni;
b) DNK molekulasiidagi fosfodiefir bog'lar soni;
c) DNK molekualsining uzunli (nukleotidlар orasidagi masofa 0,34 nm ga teng).
A) a - 720; b - 4318;
c - 734,4
B) a - 721; b - 4324;
c - 735,42
C) a - 1440; b - 8638;
c - 1468,8
D) a - 721; b - 2162;
c - 735,42

8. Quydagи berilgan o'simliklar orasidan g'umay o'simligini nimasiga ko'ra ortiqcha?
"g'umay, qoqio't, gulxayri, sachratqi"

- 1) tashqi muhitga moslanishiga ko'ra; 2) oilaga kirishiga ko'ra;
3) sinfga kirishiga ko'ra;
4) bo'limga kirishiga ko'ra;
5) ildiz tizimiga ko'ra;
6) guqo'rg'onini tuzilishiga ko'ra.
A) 2, 3, 4 B) 3, 5, 6
C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 6

9. Faeton qaysi belgilari bilan pardaganotlilardan (a) va bo'g'imoyoqlilardan (b) farq qiladi?

- 1) boshining yirik bo'lishi;
2) g'umbak hosil qilishi; 3) qoni O₂ tashishda ishtirok etmasligi;
4) jag'larining kuchli rivojlanganligi; 5) jamoa bo'lib yashashi; 6) malpiginaylarining mavjudligi; 7) qorin bo'limining ikki bo'g'imli ingichka bel orqali ko'krakka qo'shilishi;
8) uch juft yurish oyoqlarining bo'lishi.
A) a-1, 4, 6; b-3, 8
B) a-1, 5, 7; b-2, 6, 8
C) a-2, 4; b-1, 5, 8
D) a-1, 4, 7; b-3, 6, 8

10. Gastrulyatsiya jarayoni bir xil yo'l bilan kechadigan, bitta tip va har xil sinfga kiruvchi hayvonlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) salamandra; 2) qalqon tumshuq; 3) tukan; 4) triton;
5) ko'rgalak; 6) gekkon;
7) gavial; 8) churrak.
A) 2, 8 B) 6, 7
C) 1, 4 D) 3, 5

11. Tug'ilgan sog'lom bola daqaysi vaqtdan boshlab ikkinchi signal sistemasini qo'llay boshlaydi?

- A) 3 oylik bo'lganda
- B) 5 oylik bo'lganda
- C) 12 oylikbo'lganda
- D) 11 oylikbo'lganda

12. Golji apparatiga ega bo'lgan kasallik qo'zg'atuvchilarni aniqlang.

- 1) tripanosoma; 2) qoqshol qo'zg'atuvchisi; 3) vertisilium;
 - 4) oqpalak; 5) bezgak paraziti;
 - 6) quturish kasalligi qo'zg'atuvchisi; 7) pnevmokokk;
 - 8) qizilcha qo'zg'atuvchisi;
 - 9) leyshmaniyoz qo'zg'atuvchisi;
 - 10) ichburug' amyobasi.
- A) 1, 6, 10
 - B) 8, 9, 10
 - C) 1, 3, 4
 - D) 2, 5, 7

13. Albinizning har xil irsiy shakllari bo'lib, ulardan biri qisman albinizm autosoma-dominant tipda, ikkinchi xili to'liq albinizm autosoma retsessiv tipdan asldan-naslga o'tadi. Agar ota-onalardan birining genotipi digeterozigotali bo'lib, qisman albinizm bilan kasallangan, ikkinchisi to'liq albinism bilan kasallangan bo'lib, uning avlodida qisman albinism kuzatilmagan bo'lsa, shu oilada albinizmning harikkala turi bo'yicha kasallangan farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

- A) 50%
- B) 25%
- C) 12,5%
- D) 75%

14. Mevasi bitta meva

bargdan (a) ikkita meva bargdan (b) tashkil topgan o'simliklarni aniqlang.

- 1) oqakatsiya; 2) qurtana;
 - 3) mosh; 4) rediska; 5) karam;
 - 6) burchoq.
- A) a-4, 3, 1, 6; b-2, 5
 - B) a-2, 3, 4; b-1, 6
 - C) a-1, 3, 6; b-2, 4, 5
 - D) a-5, 3; b-1, 6

15. Bir urug'li quruq (a) va ko'p urug'li quruq (b) mevali o'simliklarni aniqlang.

- 1) makkajo'xori; 2) lola;
 - 3) olma; 4) arpa; 5) o'rrik;
 - 6) gledechiya.
- A) a-1, 4; b-6
 - B) a-4, 5; b-3
 - C) a-1, 6; b-5
 - D) a-4, 5; b-1

16. Qaysi javobda odam organizmida ishlab chiqariladigan organlar faoliyatini boshqarish va moddalar almashinuvidagi ta'sir bir-biriga qarama-qarshi (a) va bir biriga o'xshash (b) gormonlar to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) ADG va tiroksin, buyrak ishida;
- 2) insulin va glyukokartikoid, qonda uglevod miqdorini boshqarishda; 3) androgen va timozin, jinsiy bezlar faoliyatida;
- 4) adrenalin va vasopressin, yurak ishida; 5) estrogen va timozin, jinsiy bezlar faoliyatida;
- 6) androgen va estrogen, jinsiy bezlar faoliyatida; 7) intermedin va melatonin, pigment almashinuvida; 8) insulin va glyukokartikoid, jigarda uglevod miqdorini boshqarishda.

- A) a-1, 2, 3, 5; b-4, 6, 8
 B) a-1, 2, 3, 6; b-4, 5, 7, 8
 C) a-2, 3, 5, 8; b-4, 6, 7
 D) a-1, 3, 5, 8; b-2, 4, 6, 7

17. Ota va onaning genotipida daltonizm kasalligining bittadan geni bo'lsa, shu oila a'zolaridan kimlarda kasallik fenotipda namoyon bo'lishi mumkin?

- 1) ota; 2) ona; 3) barcha o'g'il farzandlar; 4) qiz farzandlar.

- A) 1, 4 B) 1, 3
 C) 2, 3 D) 2, 4

18. Barmoq soni 4 ta (a), 8 ta (b), 10 ta (c), 12 ta (d), 14 ta (e), 18 ta (f), 20 ta (g) bo'lgan organizmlarni juftlab ko'rsating.

- 1) gatterita; 2) kvaksha;
 3) kondor; 4) kazuar; 5) qulon;
 6) karkidon; 7) povituxa;
 8) sarisar; 9) nandu;
 10) kakadu; 11) salamandra;
 12) maral; 13) kapiti.
 A) a-5; b-12, 13; c-4, 9; d-6; e-3,
 8, 10; f-2, 7; g-1, 11
 B) a-5, 12; b-13; c-4, 9; d-6; e-3,
 8, 10; f-2, 7; g-1, 11
 C) a-5, 13; b-12; c-4, 9; d-6; e-3,
 8, 10; f-2, 7, 11; g-1
 D) a-5; b-12, 13; c-4, 9; d-6; e-3,
 8, 10; f-2, 7, 11; g-1

19. Odamning S-sitoxrom (a) gemoglobin a (b) oqsil zanjirlari sinteziga javobgar bo'lgan i-RNKdagi nukleotidlar farqi qaysi hayvonlar bilan 3 taga teng.

- A) makaka; gorilla
 B) makaka; shimpanze
 C) shimpanze; makaka
 D) gorilla; shimpanze

20. Berilgan organizmlar juftliklaridan qaysilarida genlar oqimi jadal boradi?

- A) Sanzor, Samarqand-3, Samarqand
 B) Misrg'o'zasi, Oddiyg'o'za
 C) Yulduz, Namangan-34, Omad
 D) baqlajon, qalampir, ituzum

21. Quyidagi organizmlardan qaysilarida faqat ona organizm belgi va xossalari rivojlanishi mumkin?

- 1) erkakasalari; 2) halqali chuvalchanglar; 3) dafniya;
 4) o'rdak; 5) askarida; 6) terak;
 7) siklop; 8) urg'ochiasalari.
 A) 6, 3, 2
 B) 2, 6, 5
 C) 1, 7, 3
 D) 1, 2, 3, 5

22. Populatsiya holatiga ovqat miqdori katta ta'sir ko'rsatishi Viskonsin universiteti olimlari tomonidan sichqonlar ustida o'tkazilgan tajribada aniqlandi. Bu tajribada sichqonlar ko'payishi uchun chekllovchi omil (a), populatsiyaning muozanatini saqlovchi omil (b) berilgan javobni aniqlang.

- A) a - panmiksiya;
 b - migratsiya
 B) a - alohidalanish;
 b - migratsiya
 C) a - ovqat; b - emigratsiya
 D) a - ovqat; b - kannibalizm

23. Organizmda paydo bo'lgan somatik mutatsiya keyingi avlodga o'tmaydigan (a), generativ mutatsiya keyingi avlodga o'tadigan (b) jarayonlarni belgilang.

- 1) gidra kurtaklanib ko‘paysa;
 2) meduzalar jinsiy
 ko‘payganda; 3) terak
 qalamchlardan ko‘payganda;
 4) gidra jinsiy ko‘payganda.

- A) a-1, 3; b-2, 4
 B) a-2, 4; b-1, 3
 C) a-2; b-1, 3, 4
 D) a-2, 4; b-2, 4

24. Makkajo‘xori gulining qizil rangi A-B-gen ta’sirida yuzaga chiqadi. Dominant genlardan birining bo‘lishi sariq rangni, uchramasligi oq rangni yuzaga chiqaradi. Qizil va oq gulli makkajo‘xorilar chatishtirilganda F_1 da qizil gulli o‘simgiliklar olindi. F_2 olingan o‘simgiliklarning necha foizi fenotipi qizil rangli makkajo‘xoriga o‘xshab genotip jihatdan farq qiladi?

- A) 31,25 B) 25
 C) 56,25 D) 75

25. Agar normal tuxumhujayra spermatozoid ($22 + Y$) bilan urug‘lansa,

- A) stabillashtiruvchi tanlanish; tabiiy abort yuz beradi
 B) daun sindromi bilan kasallangan o‘g‘il tug‘iladi
 C) sog‘lom o‘gil tug‘iladi
 D) harakatlantiruvchi tanlanish; tabiiy abort yuz beradi

26. Harakatlantiruvchi (a) stabillashtiruvchi (b) tanlanishga xos xususiyatlarni aniqlang.

- 1) qayin odimchisining qoramtil formasi qishloq ekosistemasida nobud bo‘lishi;
 2) ko‘rshapalaklarda ko‘z degeneratsiyasi; 3) latimerianing mavjudligi; 4) suv qaroqchisida

ildiz bo‘lmasligi; 5) shahar ekosistemasida qoramtil qayin odimchisi uchrashi.

- A) a-5, 2; b-1, 3, 4
 B) a-5, 2, 4; b-1, 3
 C) a-5; b-1, 3, 4, 2
 D) a-5, 4; b-1, 3, 2

27. Tuvaloqning sistematik o‘rnini to‘g‘ri berilgan javobni toping.

- 1) kaptarsimonlar turkumi;
 2) tovuqsimonlar turkumi;
 3) qushlar sinfi; 4) xordalilar tipi; 5) boshskeletsizlar kenja tipi; 6) suv qushlari sinfi; 7) bosh skeletlilar kenja tipi.

- A) 3, 7, 4
 B) 2, 3, 7, 4
 C) 1, 6, 5, 4
 D) 2, 6, 5, 4

28. Quyidagilardan antropogenez jarayonida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar noto‘g‘ri keltirilgan javobni toping.

- A) Tik yurishga o‘tish qo‘llarning ozod bo‘lishiga imkon yaratgan.
 B) Nutqning paydo bo‘lishi jamoa bo‘lib yashash bilan bog‘liq.
 C) Aralash ovqatlanish ichaklarning qisqarishiga olib kelgan.
 D) Jamoa bo‘lib yashash maymunlarning tik oyoqda yurishiga turtki bo‘lgan.

29. Biokimyoviy ixtisoslashishga mos jarayon keltirilgan javobni toping.

- 1) eritrositlarning yadrosini yo‘qotib yumaloq shakl kelishi;
 2) oshqozon osti bezi hujayralarida insulin garmonining sintezlanishi;

3) oq qon tanachalarida antitana ishlab chiqarilishi;
 4) leykositlarning amyobasimon tuzilishiga ega bo'lishi; 5) nerv hujayralarda akson va dendritning shakllanishi;
 6) muskul hujayralarda qisqaruvchi oqsilning bo'lishi.

- A) 2, 3, 6
 B) 1, 3, 6
 C) 2, 4, 6
 D) 1, 4, 5

30. DNK molekulasini ikki ipida 2600 ta nukleotid bor. Umumiyl nukleotidlarni 25% i G. 1-ipda sitozin nukleolidini 60% i, adeninlarning esa 40% i joylashgan. DNKnинг 1-ipidan sintezlangan i-RNKdagi purin asoslari sonini toping.

- A) 1300
 B) 390
 C) 520
 D) 780

9-2018

1. Ildizdagи qo'shimcha kurtaklaridan yangi yosh novdalar hosil qiladigan o'simlikni belgilang.

- A) sadaqayrag'och
 B) maymunjon
 C) shaftoli
 D) saksovul

2. Bir yillik (a), ikki yillik (b), ko'p yillik (c), buta (d) va daraxt (e) larga tegishli javoblarni juflab ko'rsating.

- 1) tabiiy holda o'sadiganlari sharoitga qarab bir biridan keski farq qiladi; 2) ko'p yillik o'simlik; 3) bir nechta yog'ochlashgan tanaga ega;
 4) ildizdagи qo'shimcha kurtaklaridan yangi yosh novdalar hosil qiladi; 5) yer ustki qismi qishda sovuqdan qurib ketadi; 6) birinchi yili generativ organlar hosil qiladi;
 7) ikkinchi yili generativ organlar hosil qiladi; 8) shakli o'zgargan yer osti novdaga ega;
 9) madaniy o'simliklarning juda ko'pchilik qismini tashkil etadi;
 10) metamorfozlashgan ildiz tizimiga ega.

- A) a-6, 8, 9; b-10; c-2, 5, 8; d-2, 3, 4; e-1, 2
 B) a-6, 9; b-7, 10; c-2, 5, 8; d-2, 3, 5; e-1, 2
 C) a-6, 8; b-7, 10; c-2, 5, 8; d-2, 3, 5; e-1, 4
 D) a-6, 8; b-7, 10; c-5, 8; d-1, 3, 4; e-2, 4, 9

3. Floemaning yo'ldosh hujayrasi qayerda joylashadi?

- A) elaksimon nay va lub tolasi o'rtasida
 B) lub parenximasi bilan elaksimon nay o'rtasida
 C) lub parenximasi bilan lub tolasi o'rtasida
 D) elaksimon va o'tkazuvchi nay o'rtasida

4. Shakli o'zgargan yer usti novdaga ega bo'lgan o'simliklarni belgilang.

- 1) loviya; 2) qulupnay;
 3) itqovun; 4) zirk;
 5) do'lana; 6) akatsiya;
 7) tok; 8) yantoq.
 A) 2, 3, 5, 7
 B) 1, 2, 5
 C) 2, 4, 6, 8
 D) 2, 3, 6

5. Qaysi o'simlikning gullari kalta va yog'on gulpojada bandsiz joylashadi?

- A) zubturum
- B) makkajo'xori
- C) sebarga
- D) tol

6. Qaysi jarayon tufayli o'simlikning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan energiya hosil bo'ladi?

- A) fotosintez
- B) xemosintez
- C) moddalar almashinuvi
- D) nafas olish

7. Rishtaga xos xususiyatlarni belgilang.

- 1) Tropik o'lkalarda tarqalgan;
- 2) Subtropik o'lkalarda tarqalgan; 3) uzunligi 1 metrgacha; 4) tanasining bir qismi kalavaga o'xshab o'ralgan bo'lib, teridan chiqib turadi;
- 5) terining derma qavatida parazitlik qiladi; 6) to'garak chuvalchanglar tipiga mansub;
- 7) qon bilan oziqlanadi;
- 8) hujayralararo modda bilan oziqlanadi; 9) terining gipoderma qavatida parazitlik qiladi; 10) terida ho'l yara paydo qiladi; 11) teri ostidagi biriktiruvchi to'qima hujayralarida parazitlik qiladi;
- 12) tirik lichinkalar tug'ib ko'payadi; 13) yassi chuvalchanglar tipiga mansub;
- 14) sikloplarga rishta lichinka orqali yuqadi; 15) odamga rishta lichinkasi sikloplar orqali yuqadi; 16) Hozirgi kunda O'zbekistonda rishta odam va hayvonlarda tugatilgan.

A) 1, 3, 4, 6, 9, 10, 12, 15

B) 2, 5, 6, 7, 11, 14, 15

C) 1, 2, 3, 6, 8, 11, 14, 16

D) 2, 8, 9, 12, 14, 15

8. Chumolilarga xos xususiyatlarni belgilang.

- 1) oila bo'lib yashovchi pardaqanotlilar hisoblanadi;
 - 2) ko'krak bo'limining ingichka bel yordamida ikki bo'g'imli qoringa qo'shilishi bilan boshqa pardaqanotlilardan farq qiladi;
 - 3) og'iz organi kemiruvchi tipda;
 - 4) bosh miyasi boshqa hasharotlarga nisbatan kuchli rivojlangan;
 - 5) boshi va mo'ylovlarining yirikligi bilan boshqa pardaqanotlilardan farq qiladi;
 - 6) nerv tugunlari boshqa hasharotlarga nisbatan kuchli rivojlangan;
 - 7) tuxumdan chiqqan lichinkasining ichki tuzilishi voyaga yetgan hasharotga o'xshaydi;
 - 8) jag'lari yirik;
 - 9) individlari orasida bir nechta ona, o'nlab erkak va bir necha million ishchi chumolilar bo'ladi;
 - 10) ishchi chumolilar urug'lanish qobiliyatini yo'qotgan;
 - 11) ishchi erkak arilar chala hazm bo'lgan oziq bilan qurtlar va ona chumolini boqishadi;
 - 12) ishchi arilar navkarlarni ham boqishadi.
- A) 1, 2, 3, 9, 10, 12
 - B) 1, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 12
 - C) 3, 6, 8, 9, 12
 - D) 1, 3, 4, 6, 7, 10

- 9.** Birlamchi siydik tarkibida uchrovchi organik va anorganik moddalarni belgilang.
- 1) siydik kislota;
 - 2) aminokislota; 3) ortiqcha tuzlar; 4) kreatin; 5) glukoza; 6) qoldiq azot; 7) mochevina; 8) Oqsil.
- A) a-1, 2, 4, 5; b-3, 6, 7
 B) a-2, 5, 7; b-3, 6
 C) a-1, 2, 5; b-6
 D) a-2, 4, 5; b-1, 3, 6
- 10.** O't suyuqligini oshqozon bo'shlig'iga ajratadigan organizmlarni belgilang.
- 1) bitiniya; 2) langust; 3) suv shillig'i; 4) lansetnik; 5) baqra; 6) omar.
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6
 B) 1, 3, 4
 C) 1, 3
 D) 1, 2, 3, 5, 6
- 11.** O'simliklarning mevalari (a), yer osti tugunaklari (b), novdalari (c) va bargi (d) bilan oziqlanadigan hayvonlarni belgilang.
- 1) zog'ora baliq; 2) bronza qo'ng'izi; 3) tuvaloq; 4) xasva qandala; 5) kolorado qo'ng'izi; 6) qashqaldoq; 7) faeton chumoli; 8) to'ngiz; 9) olma mevaxo'ri; 10) karam kapalagi; 11) qo'ng'ir ayiq; 12) Tulki.
- A) a-2, 6, 7, 8, 9, 11, 12; b-3, 6, 8; c-1, 3; d-2, 3, 4, 5, 10
 B) a-2, 6, 7, 9, 11, 12; b-3, 6, 8; c-1, 3; d-2, 4, 5, 10
 C) a-2, 6, 7, 8, 9, 11, 12; b-3, 8, 11; c-1, 3; d-2, 3, 4, 5, 10
 D) a-2, 6, 7, 8, 9, 11; b-3, 6, 8; c-1, 3; d-2, 3, 4, 5, 10

- 12.** Tunda ov qiladigan umurtqalilarni belgilang.
- 1) tulki; 2) arslon; 3) falanga; 4) gekkon; 5) tuyaqush; 6) qurbaqa; 7) chayon; 8) qashqaldoq; 9) biy; 10) bo'ri; 11) qisqichbaqa; 12) Ukki.
- A) 2, 3, 4, 10, 11
 B) 4, 5, 8, 10, 12
 C) 1, 4, 9, 10, 12
 D) 4, 6, 8, 10
- 13.** Qaysi turkum vakillaridan tibbiyotda foydalilanadi?
- 1) tangachaqanotlilar;
 2) pardaqanotlilar;
 3) dumsizlar; 4) ilonlar;
 5) tangachalilar; 6) zuluklar;
 7) toq tuyoqlilar; 8) skatlar.
- A) 2, 3, 5, 7
 B) 1, 2, 4, 6, 8
 C) 2, 3, 6, 7, 8
 D) 2, 5, 8
- 14.** Noto'g'ri javobni toping.
- A) panjaqanotlilarning skeleti va suzgichlarining tuzilishi quruqlikda yashaydigan umurtqalilarning oyoqlariga o'xshab ketadi.
 B) ildam kaltakesakning terisi yashil-kulrang tusda bo'lganligi tufayli yirtqich hayvonlar uni o'tlar orasida sezmaydi.
 C) kaltakesakning hazm qilish, ayirish va qon aylanish sistemasining tuzilishi suvda hamda quruqlikda yashovchilarnikiga o'xshaydi.
 D) kapcha ilon qurbaqa, kemiruvchi va kaltakesaklar bilan oziqlanadi.
- 15.** Tunda ov qiladigan umurtqasizlar turkumlarini belgilang.

- 1) qisqichbaqa; 2) o'rgimchak;
 3) falanga; 4) qoraqurt; 5) qora
 bog' chumoli; 6) kana;
 7) chayon; 8) biy.
 A) 1, 2, 3, 4, 7, 8
 B) 2, 3, 7
 C) 2, 3, 4, 7, 8
 D) 3, 7

16. Qisqa halqumga ega bo'lgan organizmlarni belgilang.

- 1) planariya; 2) jigar qurti;
 3) askarida; 4) yomg'ir chuvalchang; 5) daryo qisqichbaqasi; 6) yashil bronza qo'ng'izi.
 A) 1, 2, 3, 4, 5, 6
 B) 1, 2, 3, 5
 C) 2, 3, 4, 6
 D) 1, 2, 3, 4

17. Noto'g'ri fikrni toping.

- A) hasharotlarning murakkab xulq-atvori va sezgi organlarining tuzilishi nerv sistemasi bilan bog'liq
 B) sariq o'rmon chumolisining nerv tugunlari boshqa hasharotlarga nisbatan kuchli rivojlangan
 C) bahor va yoz mavsumida chivinlarning bir necha avlodи rivojlanadi
 D) zog'ora baliqning yutgan ozig'i bevosita ichakka tushadi

18. Odam organizmida

- A vitamin yetishmasa ...
 1) yaralar bitishi qiyinlashadi;
 2) enterit yuzaga keladi;
 3) traxeit yuzaga keladi;
 4) nerv tolalari falajlanadi;
 5) terida sezuvchanlik susayadi;
 6) epiteliy to'qimasi shakllanishi susayadi; 7) nanizm rivojlanadi;
 8) ko'z soqqasining yallig'lanishi.

- A) 1, 2, 4, 6
 B) 2, 3, 6, 8
 C) 1, 2, 3, 7
 D) 2, 3, 5, 8

19. Qaysi kasalliklar tufayli hujayra ichidagi, hujayralar orasidagi, qon va limfadagi suyuqliklar miqdori hamda ularning kimyoviy tarkibi o'zgarmaydi?

- 1) sariq kasalligi; 2) ensefalit;
 3) salmonellyoz; 4) nefrit;
 5) zotiljam; 6) jigar sirrozi;
 7) kolit; 8) buyrak tosh kasalligi; 9) gipertoniya;
 10) botulizm.
 A) 3, 6, 8
 B) 1, 4, 7
 C) 2, 5, 9
 D) 2, 4, 6, 9, 10

20. Noma'lum shaxsli ayol Shershevskiy-Tyorner sindromi bilan kasallandi. Ushbu ayolning follikula hujayralaridagi autosoma xromosomalari sonini belgilang.

- A) 44
 B) 22
 C) 23
 D) 0

21. O'simliklar hujayrasida qanday organik birikma(lar) to'planadi?

- 1) glukoza; 2) saxaroza;
 3) kraxmal; 4) oqsil; 5) moy.
 A) 1, 2, 3, 4, 5
 B) 3, 4, 5
 C) 3
 D) 2, 3, 4, 5

22. Odam organizmida ishlab chiqariladigan oqsil (a) va lipid (b) tabiatli gormonlarni ko'rsating;

- 1) somatotrop; 2) tiroksin;
 3) esterogen; 4) melanin;
 5) melatonin; 6) progesteron;
 7) xolesterol; 8) androgen.

- A) a-1, 2, 5; b-3, 6, 7, 8
 B) a-1, 2, 4; b-3, 6
 C) a-2, 5; b-3, 6, 7
 D) a-1, 2, 5; b-3, 6, 8

23. Zorka hujayrasi tarkibida mavjud karbonsuvlar to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.

- 1) glikogen; 2) kraxmal;
 3) laktoza; 4) dezoksiriboza;
 5) riboza; 6) amilaza; 7) xitin;
 8) xolesterin.
 A) 1, 4, 7
 B) 1, 2, 4, 5, 7
 C) 1, 3, 4, 5, 7
 D) 2, 4, 5, 6, 7

24. Fotosintezning yorug‘lik (a) va qorong‘ilik (b) bosqichlarida kechuvchi jarayonlarni ko‘rsating.

- 1) fotoliz; 2) ATF hosil bo‘lishi;
 3) issiqlik energiyasining hosil bo‘lishi; 4) ATFning ADF va fosfat kislotaga parchalanishi;
 5) xlorofidan elektronlar ajralishi; 6) molekulyar O₂ hosil bo‘lishi; 7) glyukoza sintezi;
 8) H₂ larning organik birikmalar yordamida tashilishi;
 9) ADFning yutilishi;
 10) CO₂ ning yutilishi.

- A) a-2, 3, 4, 6, 10; b-5, 7, 9
 B) a-1, 2, 4; b-7, 9, 10
 C) a-1, 2, 3, 4, 6, 8; b-4, 9, 10
 D) a-1, 2, 3, 5, 6, 9; b-4, 7, 8, 10

25. Tovushqonning somatik hujayrasida 42 ta autosoma xromosomalari mavjud. Uning organizmida kechadigan

spermatogenez jarayonining metafaza I davrida jami xromosomalar soni (a), xromatidalar soni (b), hujayra markazi soni (c), sentriolalar soni (d) ni aniqlang.

- A) a - 44; b - 88; c - 2; d - 4
 B) a - 44; b - 88; c - 4; d - 8
 C) a - 88; b - 88; c - 2; d - 4
 D) a - 44; b - 88; c - 4; d - 108

26. Modifikator genlarga xos xususiyatlarni aniqlang.

- 1) belgining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;
 2) qoramollarda terisining ola-bula bo‘lishiga ta’sir etuvchi asosiy dominant gen faoliyatiga ta’sir etadi; 3) belgiga ta’sir etuvchi retsessiv gen faoliyatini susaytiradi; 4) belgi ta’sir etuvchi dominant gen faoliyatini kuchaytiradi;
 5) belgining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi;
 6) kuchaytiruvchi modifikator gen ta’sirida qoramollar terisida oq rang ko‘proq bo‘ladi; 7) bir vaqtning o‘zida bir qancha belgining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi;
 8) susaytiruvchi modifikator gen ta’sirida qoramollarda qora rangli dog‘lar ko‘p bo‘ladi.

- A) 2, 6
 B) 1, 7
 C) 3, 8
 D) 4, 5

27. Skuns hujayralarining qaysi tuzilmalarida energetik almashinuvda ADFning yutulish jarayoni ro‘y beradi?

- 1) ribosomada;
 2) mitoxondriyada;

- 3) golji majmuasida;
 4) endoplazmatik to'rda;
 5) sitoplazmada;
 6) xloroplastda
 A) 1, 2, 4, 6
 B) 2, 3, 5
 C) 2, 5
 D) 2

28. Hayvonlardagi suv tanqisligiga moslanishlar ko'rsatilmagan javobni toping.

1) termitlarning yerosti suvigacha yo'l ochishi;
 2) gambuziya tuxumining suvda urug'lanishi;
 3) tog' g'ozlari barmoqlarining orasida parda bo'lishi;
 4) gekkonlarning kunduzi devor yorig'iga yashirinib yotishi;
 5) dengiz masxarabozining o'simliklarga o'xshashligi;
 6) kvaksha itbalig'ining rivojlanishi;
 7) hasharotlarda nafas teshiklarining klapanlar bilan beklishi;
 8) tuya urkachida yog' to'planishi;
 9) manta tanasining suyri shaklda bo'lishi.

- A) 2, 3, 7, 9
 B) 1, 3, 4, 9
 C) 2, 4, 5, 8
 D) 2, 3, 5, 9

29. Habashiston (a) va Neotropik (b) biogeografik

1. Quyidagilarning qaysi biri kuzatish metodi yordamida o'rganiladi?
- 1) forelning orqa suzgichi ortida yana bitta suzgichining bo'lishi; 2) kvakshada kloakaning bo'lishi; 3) itlarda

viloyatlariga mansub sute Mizuvchi hayvonlarni ajrating.
 1) xameleon; 2) qiloyoq;
 3) iguana; 4) karkidon;
 5) sargan; 6) oddiy vampir;
 7) shinshilla; 8) kanna;
 9) opossum; 10) kafr buyvoli.

- A) a-2, 7, 9; b-4, 8, 10
 B) a-2, 7, 8; b-4, 6, 9
 C) a-2, 4, 8; b-6, 7, 9
 D) a-1, 7, 8; b-3, 6, 9

30. Bulg'or qalampirida (R-C-) genlarining birgalikda bo'lishi mevasining qizil rangda bo'lishini ta'minlaydi, ularning resessiv allellari esa mevasining yashil rangini yuzaga chiqaradi. Genotipda faqat birinchи juft allel gen dominant holda bo'lishi mevasining qo'ng'irligini, faqat ikkinchi juft allelining dominant holda bo'lishi esa mevasining sariq rangini namoyon etadi. Digeterozigota o'simliklar chatishtirilganda avlodda olingan o'simliklardan necha foizining fenotipiga ko'ra genotipini aniqlash mumkin?

- A) 0
 B) 56, 25
 C) 6, 25
 D) 37, 5

10-2018

1. Quyidagilarning qaysi biri boshqa sute Mizuvchilardan farqli ravishda o'mrov suyagining bo'lmasligi;
 4) jayronlar podasining 30 tagacha individdan iborat bo'lishi; 5) pnevmokokkning S-shtami yuqtirilganda

- sichqonning nobud bo'lishi;
6) bo'rilar ning 3-4 tadan
13 tagacha bola tug'ishi.
A) 3, 5
B) 2, 4, 6
C) 1, 5
D) 1, 4, 6

2. Quyida berilganlardan qaysilari DNK replikatsiyasida qatnashmaydi?

- a) tirozin; b) adenin; c) riboza;
d) ATF; e) timin; f) uratsil;
g) guanin; h) alanin.
A) b, d, e
B) a, c, h
C) c, d, g
D) a, b, f

3. Kalmar (1), bezgak paraziti (2), everniya prunastri (3) va fillofora (4) ga xos xususiyatlarni juftlab ko'rsating.

- a) noqulay sharoitda sista hosil qiladi;
b) iliq bahor va yoz oylarida kurtaklanib ko'payadi;
c) ikkita organizmda parazitlik qiladi;
d) gifasi mavjud; e) chuchuk suvda uchramaydi.
A) 1-e, 2-c, 3-d, 4-e
B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-b
C) 1-a, 2-a, 3-b, 4-e
D) 1-e, 2-c, 3-b, 4-d

4. Riboza uchun xos xususiyatlarni aniqlang.

- uratsil tarkibida uchraydi;
- 5 ta uglerod atomiga ega;
- polisaxarid hosil qilishda qatnashmaydi;
- biopolimer hosil qilishda qatnashmaydi;

- 5) nukleotidlardan tarkibida uchraydi;
6) xromasomada uchramaydi;
7) timin tarkibida uchraydi.
A) 3, 5, 7
B) 1, 4, 6
C) 1, 5, 6
D) 1, 3, 6

5. To'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) mitoxondryada n ta ATF sinteziga ketgan vaqt davomida xloroplastda n·30 ta ATF hosil bo'ladi; 2) n ta peptid bog'ga ega oqsilni parchalash uchun n + 1 ta suv molekulasi kerak bo'ladi; 3) n ta fosfat kislota qoldig'i bo'lgan DNKda n - 1 ta fosfodiefir bog' bo'ladi; 4) n ta peptid bog'iga ega oqsil sintezida qatnashgan i-RNKda (n + 1)·3 ta nukleotid bo'ladi.

- A) 1, 4 B) 2, 4
C) 1, 3 D) 2, 3

6. Partenogenez natijasida tug'ilgan organizm ona organizmning kloni bo'lolmaydi, chunki ...

- a) ovogenez jarayonida krossingover yuz berganligi uchun; b) ovogenez jarayonida yo'naltiruvchi tanachalar hosil bo'lganligi uchun; c) anafaza I da xromasomalar notekis taqsimlanganligi uchun;
d) ovogeneznинг oxirida bitta tuxum hujayra rivojlanganligi uchun; e) ovogeneznинг ko'payish bosqichida hujayralar mitoz usulida ko'payganligi uchun.

- A) b, d B) c, e
C) a, c D) b, e

7. Translyatsiya (1) va transkripsiya natijasida hosil bo‘ladigan (2), translyatsiya (3) va transkripsiya jarayonida ishtirok etadigan (4) moddalarni juftlab ko‘rsating.
- a) RNK polimeraza; b) iRNK;
c) DNK polimeraza; d) DNK.
A) 1-a, c; 2-b, d; 3-a; 4-b
B) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d
C) 1-c; 2-b; 3-c, d; 4-a
D) 1-a, c; 2-b; 3-b; 4-a

8. Quyidagi tuxum hujayralardan qaysi biri normal spermatozoid bilan qo‘shilsa:
- 1) Daun sindromi;
2) Klaynfelter sindromi;
3) Shereshevskiy-Terner sindromi bilan kasallangan bola tug‘iladi?
- a) autosomalar 22 ta, DNK 24 ta; b) autosomalar 23 ta, DNK 24 ta; c) autosomalar 22 ta, DNK 22 ta;
d) autosomalar 22 ta, DNK 23 ta.
A) 1-a, 2-c, 3-d
B) 1-b, 2-a, 3-c
C) 1-c, 2-d, 3-a
D) 1-b, 2-d, 3-c

9. AABbCcDDEe organizmni xuddi shunday genotipli organizm bilan chatishtirilganda fenotipik sinflar soni nechta bo‘ladi? Uchinchi va to‘rtinchi juft allellar oraliq irsiylanadi.
- | | |
|-------|-------|
| A) 16 | B) 8 |
| C) 12 | D) 27 |

10. Albinizmning baliqlari, suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va

sutemizuvchilar orasida uchrashini tushuntiruvchi qonunni kashf qilgan olimni toping.

- A) N.I. Vavilov
B) K. Ber
C) F. Myuller va E. Gekkel
D) Ch. Darwin

11. Ayrim hasharotlarning erkagi hosil qilgan spermatozoidlarning birida bitta jinsiy xromasoma bo‘lsa, ikkinchisida jinsiy xromasoma bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, erkak organizm tug‘ilishi uchun tuxum hujayra bilan qaysi spermatozoid qo‘shilishi kerak?

- A) autosoma +X
B) autosoma +XO
C) autosoma +O
D) autosoma +XY

12. Qirqquloqlarning murtagi (1) nimadan rivojlanadi, murtagidan (2) nima rivojlanadi?

- a) urug‘langan tuxum hujayra;
b) spora; c) yangi qirqquloq;
d) gametofit.

- A) 1-c, 2-a
B) 1-b, 2-d
C) 1-b, 2-c
D) 1-a, 2-c

13. Qo‘ng‘ir (1), yashil (2) va qizil (3) suvo‘tlarni ko‘rsating.

- a) porfira; b) fillifora;
c) yapon laminariyasi;
d) ulva; e) nemalion.

- A) 1-a, c; 2-b; 3-e
B) 1-c; 2-d; 3-a, b
C) 1-a, c; 2-d; 3-b, e
D) 1-d; 2-a, e; 3-b

14. Archaning urug‘chili qubbasiga tegishli bo‘lmagan javob(lar)ni toping.

a) bahorning ohirlarida hosil bo‘ladi; b) changchili qubbalar bilan bitta tupda bo‘lmaydi; c) uzunligi 0,5–1 mm; d) urug‘chili qubbani tangachalar tashkil qiladi.

- A) b, c
- B) c
- C) a, d
- D) c, d

15. Funariyaning ulotriksga o‘xshash belgilarini aniqlang.

1) yuksak o‘simlik; 2) jinsiy va jinsiz yo‘l bilan ko‘payadi; 3) fotosintezi xromataforda kechadi; 4) ildizi va o‘tkazuvchi sistemasi yo‘q; 5) rizoidga ega; 6) jinsiy va jinsiz ko‘payish faqat suvda kechadi.

- A) 1, 3
- B) 4, 5
- C) 3, 6
- D) 3, 4

16. Berilgan o‘simliklarni ularga xos gul turlari bilan juftlang.

a) ikki jinsli, qiyshiq; b) ikki jinsli, to‘g‘ri; c) bir jinsli, qiyshiq; d) bir jinsli, to‘g‘ri:
1) jaydari g‘oza; 2) boychechak; 3) tuxumak; 4) bodring;
5) cho‘gari.

- A) b-1, 2; a-3; d-4, 5
- B) a-1, 3; 2-c; d-4, 5
- C) a-1, 5; c-2; d-3, 4
- D) d-2, 3, 4; a-1, 2, 5

17. Mevasi bitta mevabargdan hosil bo‘ladigan (a), urug‘lari mevapallaga birikadigan (b), urug‘lari pallalar orasidagi

to‘sinqqa birikuvchi (c) mevalarni qaysi oilalarda uchrashi bilan juftlab ko‘rsating.

- 1) ra‘nodoshlar;
 - 2) karamdoshlar;
 - 3) qoqio‘tdoshlar;
 - 4) tokdoshlar;
 - 5) burchoqdoshlar.
- A) a-1, 3; b-5; c-2
 - B) a-3, 4; b-1, 2; c-5
 - C) a-5; b-5; c-2
 - D) a-5; b-2, 3; c-5

18. Bo‘kaga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni toping.

1) ikkiqanotlilar turkumiga mansub; 2) hayvonlar terisini jag‘lari yordamida teshadi; 3) tashqi ko‘rinishi pashshaga o‘xshaydi; 4) lichinkalik davrida parazitlik qiladi; 5) boshqa hayvonlar bilan antogonizm munosabatga ega; 6) birlamchi konsument; 7) qorin qismidagi ikkinchi juft qanoti muvozanat saqlash vazifasini bajaradi; 8) qon so‘radi; 9) dastlabgi ajdodi toshko‘mir davrida paydo bo‘lgan; 10) ontogenezining embrional bosqichida otning oshqozonida parazitlik qiladi.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 5, 7, 8, 9
- C) 6, 7, 8, 10
- D) 1, 3, 4, 5

19. Gorillani boshqa primatlardan ajratib turuvchi belgilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

- a) Kalimantan orolida uchraydi;
- b) to‘rtta qon guruhi uchraydi;
- c) xromasomalaridagi nozik

chiziqlari odam
xromasomalariniki bilan
o'xhash; d) Sharqiy va
Markaziy Afrika o'rmonlarida
uchraydi; e) bitta turi mavjud;
f) panja tuzilishi bilan odamga
o'xshaydi; g) 12 juft qovurg'asi
bo'lishi bilan odamga o'xshaydi;
h) tanasining umumiyligi
mutanosibligi bilan odamga
o'xshaydi.

A) d, e, h
B) d, f, h
C) b, f, h
D) c, d, h

20. Bolada nerv tugunining
yallig'lanishi aniqlandi.
Kasallik tarixidan ma'lum
bo'ldiki, bola ... ga qarshi
emlanmagan va ganglionit shu
kasallik oqibatida yuzaga
kelgan. Nuqtalar o'rniga to'g'ri
keladigan javobni toping.

A) ichterlama
B) ichburug'
C) qizamiq
D) vabo

21. Insonning biomassasi
1 kg ga ortishi uchun 10 kg
baliq biomassasi zarur. Baliq
biomassasida mayda baliqlar,
zooplankton, fitoplankton
biomassalari mavjud. Inson
biomassasining 1 kg ga ortishi
uchun ekologik piramida
qoidasiga muvofiq necha kg
fitoplankton zarur bo'ladi?

A) 100
B) 1000
C) 11110
D) 10000

22. Odam tuxumdoniga xos
bo'lgan ma'lumotlarni
aniqlang.

1) kichik chanoq bo'shlig'ida
joylashgan juft a'zo;
2) gormonal funksiyasi
12-15 yoshda boshlanadi;
3) esterogen gormonini ishlab
chiqaradi; 4) buyrak usti
bezidan ishlab chiqarilgan
esterogen va androgen hisobiga
ishi susayadi; 5) timozin
gormoni faoliyatini to'xtatib
turadi; 6) hujayralarida
autosomalar soni 22 ta va bitta
jinsiy xromasoma bo'ladi;
7) shakli ellipssimon bo'lib,
massasi 5-6 gramm.

- A) 3, 6, 7
B) 1, 3, 5
C) 2, 5, 6
D) 4, 2, 6

23. DNK qo'sh spiralini
hammasi bo'lib 9468 ta azotli
asos, dezoksiriboza va fosfat
kislota qoldig'i hosil qilgan.
Shu DNK fragmentidan oqsil
sintezlash uchun nechta tRNK
kerak bo'ladi?

- A) 526 ta
B) 1 ta
C) 20 ta
D) 1578 ta

24. Energiya almashinuvining
ikkinchi bosqichida ajralgan
issiqlik energiyasi
mitoxondryada hosil bo'lgan
issiqlik energiyasidan necha
marta kam?

- A) 5,8
B) 14,5
C) 9,7
D) 21,7

25. Rustam 19 yoshda va bir
kunlik sarflaydigan energiya
miqdori 3500 kkal. Shu
energiyaning 21,2% i

yog‘larning, 10% i oqsillarning va qolgan qismi uglevodning parchalanishi evaziga hosil bo‘lgan. Agar Rustam kun davomida 100 g oqsil, 110 g yog‘ va 600 g uglevod iste’mol qilgan bo‘lsa, assimilyatsiya uchun sarflangan oqsil, yog‘ va uglevod miqdorini toping.

- A) oqsil – 30 g; yog‘ – 20 g; uglevod – 13 g
 B) oqsil – 19 g; yog‘ – 30 g; uglevod – 14 g
 C) oqsil – 28 g; yog‘ – 40 g; uglevod – 33 g
 D) oqsil – 14,7 g; yog‘ – 30 g; uglevod – 13 g

26. Ikkita “A” va “B” no‘xatlar “C” va “D” no‘xatlar bilan chatishtirildi. To‘rtalasi ham oddiy dukkakli, doni sariq edi. A no‘xat C va D no‘xatlar bilan chatishtirilganda faqat oddiy dukkakli, doni sariq o‘simliklar olindi. B no‘xat C no‘xat bilan chatishtirilganda faqat oddiy dukkakli donlari esa sariq va yashil o‘simliklar olindi.

D no‘xat B no‘xat bilan chatishtirilganda esa oddiy va bo‘g‘imli dukkaklar olindi va ularning hammasining doni sariq bo‘ldi. B no‘xatning genotipini aniqlang.

- A) AaBb
 B) AABb
 C) AaBB
 D) AABB

27. Kalamushlarda yungining to‘q rangliligi yorqin rang ustidan, ko‘zining pushti rangliligi esa qizilligi ustidan dominantlik qiladi. Bu belgilar

birikkan holda nasldan-naslga o‘tadi. Laboratoriyada geterozigotali pushtirang ko‘zli to‘q yungli kalamush (har ikkala dominant belgini ham otasidan olgan) bilan qizil ko‘zli yorqin yungli kalamush chatishtirildi. Agar genlar orasidagi masofa 48 morganidaga teng bo‘lsa, qizilko‘z kalamushlar tug‘ilgan avlodning necha foizini tashkil qiladi?

- A) 48
 B) 50
 C) 26
 D) 52

28. Albinizm kasalligi autosoma kasalligi. Daltonizm esa jinsga birikkan holda irsiylanadi. Geterozigota II qon guruqli daltonizm va albinizm bo‘yicha sog‘lom gomozigotali qiz, daltonik bo‘lgan va qolgan ikki belgi bo‘yicha geterozigotali II qon guruqli yigitga turmushga chiqdi. Ushbu oilada tug‘ilgan farzandlarning necha % ining qon guruhi I, gomozigotali II va geterozigotali II bo‘lish ehtimolini toping.

- A) 50; 25; 25
 B) 12,5; 12,5; 75
 C) 25; 50; 25
 D) 25; 25; 50

29. Qalampirning qizil rangda bo‘lishi R va C genlarga bog‘liq. Genotipda bu genlarning bo‘lmasligi yashil, birinchi dominant genning bo‘lishi qo‘ng‘ir, ikkinchi dominant genning bo‘lishi esa sariq rangi namoyon qiladi.

Avlodda barcha rangdagi qalampirlar teng miqdorda hosil bo'lishi uchun qanday genotipli qalampirlar o'zaro chatishtirilishi kerak?

- A) AaBb Ч aabb; Aabb Ч aaBb
- B) AaBb Ч Aabb; AAAb Ч aaBB
- C) Aabb Ч aaBb; AaBb Ч AaBb
- D) aaBb Ч AaBB; Aabb Ч aabb

30. Ma'lum bir navli oshqovoq mevasining og'irligini autosomada joylashgan, o'zaro birikmagan uch juft noallel

genlar belgilaydi. AABBCC genotipli oshqovoq og'irligi 3 kg ni, aabbcc genotip esa 1,5 kg ni tashkil etadi. Xuddi shunday genotipli oshqovoqlar o'zaro chatishtirilishidan olingan F_2 dagi oshqovoqlar necha foizining massasi 2,75 kg bo'ladi?

- A) 6,25%
- B) 18,75%
- C) 12,5%
- D) 9,375%

Javoblar

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	B	D	C	B	B	A	C	A	B	D
2	A	A	D	B	C	A	D	C	A	B
3	C	D	B	B	A	D	A	B	B	A
4	D	D	B	D	C	B	D	C	A	C
5	A	A	B	C	B	D	A	B	C	A
6	C	D	C	D	C	B	D	D	D	C
7	B	D	D	B	B	C	D	B	D	D
8	D	B	A	C	D	C	C	B	C	B
9	C	D	D	B	C	A	C	D	B	C
10	B	C	C	B	A	D	A	A	C	A
11	A	C	A	A	C	B	B	D	A	C
12	C	B	C	A	B	D	C	C	D	D
13	D	C	A	B	D	C	D	B	A	B
14	C	D	D	C	D	C	B	C	B	B
15	A	B	D	D	C	C	D	A	B	B
16	D	B	D	C	D	A	B	A	A	A
17	C	B	B	A	D	C	C	A	A	C
18	C	C	A	D	D	A	B	D	C	D
19	A	C	C	B	A	A	D	A	C	B
20	B	C	B	D	A	B	B	C	A	B
21	A	B	C	C	A	D	D	C	A	D
22	A	A	A	B	A	A	B	C	D	B
23	A	D	B	A	A	D	A	D	A	A
24	A	A	B	C	B	B	A	A	D	C
25	D	D	C	C	D	C	B	C	A	D
26	D	C	D	A	B	C	D	B	C	A
27	C	A	A	D	C	C	B	A	D	B
28	A	A	C	B	B	C	C	D	D	D
29	B	A	B	D	B	D	C	A	C	A
30	A	B	A	D	C	B	C	D	C	D
31	B	B	D	C						
32	B	D	B	C						
33	B	B	B	D						
34	A	C	D	B						
35	D	A	A	A						
36	A	A	A	A						

MUNDARIJA

1-2018	3
2-2018	7
3-2018	12
4-2018	18
5-2018	20
6-2018	31
7-2018	37
8-2018	44
9-2018	49
10-2018.....	54
Javoblar.....	61